

## KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMI O'QUVCHILARIDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

**Noraliyeva Dildora Abduvalikovna**  
*Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi*  
*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Kasb-hunar talimi tizimi o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirish haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *talim, aql, idrok, zamonaviy, poydevor, tahlil, sinf.*

Bugungi kunda ma'naviy - ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol avlodni voyaga yetkazish muammosiga alohida e'tibor qilinmoqda. O'zbekiston mustaqilligi davrida jamiyatimiz ma'naviy - axloqiy hamda ma'rifiy ishlarni amalga oshirish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlariga aylandi. Ma'naviy- axloqiy tarbiya, shaxsning barkamol bo'lib shakllanishida asosiy omil bolalikdagi berilgan ta'lim-tarbiya ekanligini anglagan holda respublikamizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyo, inson, aql-zakovat, ma'naviyat- bular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Yashab turgan zaminimiz buyod bo'libdiki, inson dunyo yuzini ko'ribdiki, o'zining manashu olamning bir bo'lagi sifatida anglabdiki, u o'zini borliqning eng mukammal mavjudoti sifatida aql-zakovati bilan tanib keladi. Inson ongi, tafakkuri va ma'naviyati tufayli shunday ustunlikka egadir. Inson dunyoga ma'lum bir maqsad bilan kelmaydi. U o'zligini idrok etgandan so'ng hayotda yashashdan ma'no izlaydi va shu narsa uning hayoti mazmunini tashkil etadi.

Nemis olim-pedagogi Adolf Distrcvcg (1790-1866) ham LGBcstabtstsi ketidan bu printsiptni eng muhim tarbiya prinsipi deb hisoblagan. O'z ishlarida yozgan ediki, ta'lim va tarbiya jarayonida yosh va individual xususiyatlarni e'tiborga olish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.01.2021 yildagi PQ-4963-sonli qarorida[1], xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish, har bir xalq ta'limi xodimining elektron portfoliosini shakllantirish, xalq ta'limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyotini yo'lga qo'yish tizimlari to'g'risida aniq ko'rsatmalar mavjud.

Bundan tashqari tadqiqot qilinayotgan mavzu yuzasida qadimda yurtimizda izlanishlar olib borilgan bo'lib, jadidchilik xarakatining ulkan nomoyondalaridan Abdulla Avloniy o'zining "Usuli jadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Ikkinchi muallim" (1915), "Maktab gulistoni" (1917) kabi darsliklar yaratdi. Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifga chorlaydi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali

xisoblangan “Xalq ta’limi” jurnalining har bir sonida talim muassasalaridagi isloxotlar, yutuq va kamchiliklar, bosqichma-bosqich rivojlantirib borish omillari to’g’risida ma’lumotlar berib boriladi. 2020-yil 28-29-aprelda “ta’lim sifati samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, vaqtlı matbuot materiallari mavzuni o’rganishda manba xisoblanadi.

O’quvchilarni axloqiy sifatlarini shallantirishda tarbiyaviy mashg’ulotlarning o’rni bugungi kun uchun o’ta dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Axloqiy tarbiya jarayonida bola axloqiy jihatdan kamolga yetadi. Axloqiy tasavvurlarning rivojlanishi jarayonida eng avvalo ular o’zlarining boshqalar bilan bo’ladigan munosabatlarini ongli ravishda tushuna boshlaydilar, tengdoshlari va kattalar bilan bo’ladigan munosabatlarida axloq saboqlari rivojlana boradi.

O’qish fanining bo’limlarini bir tartibda o’rganish shu prinspga mos tushadi.

Izlanish muammolarini hal qilish jarayonida tarixiy adabiyotlar va maqolalarda yoritilgan ma’lumotlarning natijalari, mutaxasislarning chet el davlatlaridan almashinilgan bilimlari, olimlar tomonidan chop etilgan materiallar asos bo’lib xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni bolalar bog’chasi dasturining maxsus bo’limida bayon qilib berilgan.

Axloqiy tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardir:

- G’oyaviy va tarbiyaviy ishning ma’lum maqsadga qaratilganligi;
- Ta’lim - tarbiya ishini hayot va zamon bilan bog’lab olib borish;
- Bolalarning faolligi;
- Jamoada tarbiyalash;
- Tarbiyaviy ishning sistemaligi va izchilligi;
- Ta’sirchanligi;
- Oila, bog’cha va kattalar tarbiyaviy ta’sirining birligi;
- Boladagi ijobiy sifatlarga suyanish;
- Bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko’zda tutish.

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g’oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo’ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo’lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxsning o’z faoliyati davomida ijtimoiy vazifalarini to’laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg’usiga ega bo’lishi uchun zamin yaratadi.

Shu o'rinda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Aynan bugungi kunda yurtboshimizning ilmga qaratayotgan ahamiyati yuqoriligi yurtimizni chin manodagi ilimlilarning avlodlari ekanimizdan dalolat beradi.

Shuningdek Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi».

Ibn Sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga xarakat qiladi. Uning fikricha, xayot, xayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, xayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi. Bunda yoshlarning aqlini xayotiy olamni o'rgatish va uqtirish orqali ularning ongini boyitib borishni nazarda tutadi. Bugungi kunda ham yoshlarni boshlang'ich davrdanoq o'zlari qiziqish bildirgan olimga yo'naltirib boorish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Alisher Navoiy axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, mutafakkir shunday fikrlarni ifoda etadi: “Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi.

Yoshlarni ko'zga ulug' ko'rsatadi. Ularning yurish-turishini xalq ulug'vor biladi. O'ziga qarshi xalq tomonidan bo'ladigan hurmatsizlik eshigini bog'laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitilishidan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yo'lga soladi va odam mijoziga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan muncha natija hosil bo'lgach, kattalarga allaqachon bo'lishini ko'rarsan.

Tazozu'li va adablilarga ta'zim va hurmat yetadi va u urug'ni ekan bu qimmatbaho hosilni to'plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning boshlang'ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o'rnashsa, muhabbatga xalal yetishi maholdir. Agar har ikki tomonda yaxshi xulq bo'lsa, adabi va tavozu' evaziga ta'zim paydo bo'ladi”. Bundan ko'rinib turibdiki, yaxshi xulqning asosi bo'lgan odob Alisher Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo'g'ini sanaladi.

Kasb-hunar ta'lim tizimi o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirishda bir qancha tajribalar olib borish lozim. Buning uchun milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanish va ta'lim jarayonida ularning samarali imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasb-hunar ta'lim tizimi o'quvchilarida aqliy tarbiyani shakllantirish asosan ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan ilmiy an'analarimizga suyangan xolda yo'lga qo'yish va bugungi kunda isloxotlar orqali yangi shakllangan texnologiyalarni bir-biriga bog'liq ravishda olib borish aniq maqsadni ko'zlashdan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy, Mahbub-ul-qulub. Asarlar. 15 tomlik. 13-tom. -Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1966.
2. Avloniy A. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. -Toshkent, o'qituvchi, 1994.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Movlanova, N.Rahmatqulova, N.Vohidova, "Fan va texnologiya" Toshkent -2010.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/oquvchilarda-ahloqiy-tarbiyani-shakllantirish-uslublari>
5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
9. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653.
10. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. Academia: an international multidisciplinary research journal, 11(2), 953-959.

11. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 218-220.
12. Расулов, Х. (2021). Ҳуқуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. *Общество и инновации*, 2(10/S), 335-342.
13. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 221-223.
14. Расулов, Х. М. (2021). ВЫБОРНЫЙ ЯВЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭЛЕКТРОКУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ. *Восточно-европейский научный журнал*, (11-6 (75)), 28-32.
15. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. *ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ*, 75(part 6), 28.
16. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 218-220.
17. Хакимова, М. (2021). Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлаш соҳасидаги устувор йўналишлар. *Общество и инновации*, 2(10/S), 261-267.
18. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF POLITICAL PARTIES. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 79-88.
19. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). PROCEDURE FOR REGISTRATION OF PUBLIC ASSOCIATIONS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 740-746.
20. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 89-94.
21. Ramazanovich, N. M., & Alisherovich, A. A. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF THE FAMILY IN UZBEKISTAN. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 732-739.
22. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS, THEIR SUBJECTS, OBJECTS AND TYPES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 747-756.
23. Normamat Mallaev Ramazanovich. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL STATUS OF MASS MEDIA. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 70–78.

24. Normamat Mallaev Ramazanovich, & Khaitmurod Mamanorov. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 89–94.

25. Ramazanovich, Mallaev N. "Comparative Analysis of National and Foreign Experiences on the Example of the Constitutional and Legal Basis of Ecological." International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, no. 2, 2020, pp. 1-5.

26. Normamat Mallaev Ramazanovich, IMPORTANCE AND ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVIL RIGHTS , Web of Scientist: International Scientific Research Journal: Vol. 3 No. 10 (2022): wos

27. Кушоков, С. (2021). Сополли ва Жарқўтон маданиятида дафн маросимлари. Общество и инновации, 2(11/S), 150-154.

28. Kushokov, S. Y. (2021). The Role of Zoroastrianism in the Ancient State of Bactria. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 69-72.

29. Yusupovich, K. S. (2020). The Emergence Of Religious Views Is Exemplified By The Southern Regions. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 143-145.

30. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 1(6), 72-77.

31. Сафарали, К. Ю. (2020). Чорвадор Қабилалар Дафн Маросимлари Ва Уларнинг Хусусиятлари. Взгляд В Прошлом, 3(4).

32. Сафарали, К. Ю., & Хуррамов, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING МАЛАЙЗИЯ ҲАМДА ИНДОНЕЗИЯ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲАЛАРДАГИ ҲАМКОРЛИГИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 176-186.

33. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. European Scholar Journal, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. The American Journal of Interdisciplinary.

34. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. European Scholar Journal, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. The American Journal of Interdisciplinary